

XORAZM VILOYATI

STATISTIKA BOSHQARMASI




**ASOSIY KAPITALGA
INVESTITSIYALAR**

ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

Xorazm viloyatida ijtimoiy soha va iqtisodiy rivojlantirish uchun barcha mulkchilik shakllaridagi tashkilotlarning 2022- yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 8806,6 mlrd so'mni tashkil qilib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 5,5 % ga kamaydi.

Jami investitsiyalar hajmida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 15,6 % ni yoki 1372,0 mlrd so'mni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 7434,6 mlrd so'm yoki jami investitsiyalarning 84,4 % o'zlashtirildi.



Markazlashgan investitsiyalar

Moliyalashtirish manbalari

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, %da

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da

Respublika byudjeti

9,3 %

86,7 %

Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi

1,3 %

2,9 m

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi

1,2 %

46,7 %

O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar

3,8 %

3,1 m

Markazlashmagan investitsiyalar

Moliyalashtirish manbalari

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, %da

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da

Korxona mablag'i

25,6 %

101,2 %

Aholi mablag'lari

24,0 %

102,8 %

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar

26,8 %

86,7 %

Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarzlar

8,0 %

98,9 %

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar

6,9 %

163,6 %

2022- yilning yanvar- dekabr oylarida korxona va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 2254,4 mlrd so‘m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 25,6 %ini tashkil etdi. Aholi mablag‘lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 24,0 %i yoki 2111,8 mlrd so‘mi o‘zlashtirildi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 612,9 mlrd so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 163,6 %ni, jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 6,9 %ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo‘yicha tarkibi, mlrd so‘m

Respublika byudjeti- 822,7 mlrd so‘m



Suv ta’mnoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi-110,8 mlrd so‘m



Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi-104,8 mlrd so‘m



O‘z.Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar-333,7 mlrd so‘m



Korxona mablag‘lari-
2254,4mlrd so‘m



Aholi mablag‘lari-2111,8 mlrd so‘m



To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar-
2700,9 mlrd so‘m



Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari-701,1 mlrd so‘m




Shuningdek, tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 701,1 mlrd so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 8,0 %ini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 98,9 %ni tashkil qildi), O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan 333,7 mlrd so'm (3,8 % va 3,1 m.), to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar 2323,5 mlrd so'm (26,4 % va 89,7 %), respublika byudjeti mablag'lari hisobidan 822,7 mlrd so'm (9,3 % va 86,7 %), suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan 110,8 mlrd so'm (1,3 % va 2,9m %) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

2022- yil yanvar- dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Shahar va tumanlar	hajmi, mlrd so'm	o'sish sur'ati	viloyatdagи ulushi
Urganch shahri	2072,8 mlrd so'm	92,2 %	23,5 %
Xiva shahri	424,0 mlrd so'm	60,5 %	4,8 %
Bog'ot tumani	361,2 mlrd so'm	76,2 %	4,1 %
Gurlan tumani	460,9 mlrd so'm	95,3%	5,2 %
Qo'shko'pir tumani	969,8 mlrd so'm	211,1 %	11,0 %
Urganch tumani	678,9 mlrd so'm	123,5 %	7,7 %
Hazorasp tumani	412,9 mlrd so'm	52,0 %	4,7 %
Shahar va tumanlar	hajmi, mlrd so'm	o'sish sur'ati	viloyatdagи ulushi

Tuproqqa'l tumani	430,4 mlrd so'm	100,5 %	4,9 %
Xonqa tumani	660,6 mlrd so'm	116,3 %	7,5 %
Xiva tumani	524,6 mlrd so'm	114,8 %	6,0 %
Shovot tumani	602,3 mlrd so'm	131,5 %	6,8 %
Yangiariq tumani	734,0 mlrd so'm	56,2 %	8,3 %
Yangibozor tumani	474,2 mlrd so'm	123,0 %	5,4 %


2022- yil yanvar- dekabr oylarida investitsiyalarning o'sish sur'atlari, %da



Asosiy kapitalga investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlari quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi: Qo'shko'pir tumanida - 211,1 % (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 969,8 mlrd so'm), Urganch tumanida - 123,5 %


(678,9 mlrd so‘m), Yangibozor tumanida - 123,0 % (474,2 mlrd so‘m), Shovot tumanida – 131,5 % (602,3 mlrd so‘m).

Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar, mlrd so‘m



Asosiy kapitalga investitsiyalarning viloyat bo‘yicha yuqori ulushi quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi: Urganch shahrida - 23,5 % (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 2072,8 mlrd so‘m), Urganch tumanida 7,7 % (678,9 mlrd so‘m), Qo‘shko‘pir tumanida 11,0 % (969,8 mlrd so‘m), Xonqa tumanida 7,5 % (660,6 mlrd so‘m).


Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar



Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 2022- yilning yanvar-dekabrida 4536,7 ming so'm yoki 93,0 % ni tashkil etdi.


Aholi jon boshiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkich Urganch shahriga to'g'ri kelib, 13977,4 ming so'm ni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 90,6 %ni tashkil etdi. Tuproqqa'l'a tumanida 7511,2 ming so'm (yoki 97,4 %) va Yangibozor tumanida 5263,2 ming so'm (yoki 121,1 %) darajada qayd etildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi,(%da)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida viloyatda qurilish-montaj ishlarining ulushi 39,8 %, mashina va uskunalar sotib olish xarajatlari - 55,0 %, boshqa xarajatlarning ulushi 5,2 %ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, mlrd so'm**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarni o'zlashtirish: qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 1194,3 mlrd so'm yoki jami investitsiyalarning 13,7 %, ishlab chiqarish sanoati – 1842,4 mlrd so'm (20,9 %), qurilish - 531,1 mlrd so'm (yoki 6,0 %), ulgurji va chakana savdo, avtotransport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash - 369,1 mlrd so'm (yoki 4,2%), ta'lim - 383,6 mlrd so'm (yoki 4,4 %), uy-joy qurilishi - 1291,9 mlrd so'm (yoki 14,7 %) va boshqa faoliyat turlari – 2212,9 mlrd so'm (yoki 25,1 %).

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 2700,9 mlrd so'm o'zlashtirilib (dollar ekvivalentida 246,6 mln AQSH dollarri), o'tgan yilning mos davriga nisbatan 86,6 %ni tashkil qildi.

Xorijiy investitsiyalar va kreditlarning umumiy tarkibida xorijiy investitsiyalar 2700,9 mlrd so'mni tashkil etdi, shuningdek, 1710,6 mlrd so'm xorijiy kreditlarga to'g'ri keldi.

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmidan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 612,9 mlrd so'mni, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar - 333,7 mlrd so'mni, boshqa xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar – 1989,8 mlrd so'mni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarning eng katta ulushi Yangiariq tumaniga to'g'ri kelib, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi 61,0 %ni ta'minladi, Shovot tumanida -49,8 %, Qo'shko'pir tumanida – 38,2 % darajada kuzatildi.



Xorijiy investitsiya va kreditlar




XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

	<i>Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirishi, mlrd so'm</i>		<i>Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirishi, nisbatan %da</i>	
	<i>Jami:</i>	<i>Shu jumladan, kreditlar:</i>	<i>Jamiga:</i>	<i>Asosiy kapitalga investitsiyalar:</i>
Xorazm viloyati	2700,9	1710,6	100,0	30,7

<i>shahar va tumanlar:</i>				
Urganch sh.	467,0	248,8	17,3	22,5
Xiva sh.	147,8	80,4	5,5	34,9
Bog'ot	47,0	43,7	1,7	13,0
Gurlan	95,7	95,7	3,5	20,8
Qo'shko'pir	370,7	370,7	13,7	38,2
Urganch	181,7	172,5	6,7	26,8
Hazorasp	66,8	66,8	2,5	16,2
Tuproqqal'a	71,8	71,8	2,7	16,7
Xonqa	227,3	227,3	8,4	34,4
Xiva	172,7	172,7	6,4	32,9
Shovot	300,1	0,0	11,1	49,8
Yangiariq	447,5	55,3	16,6	61,0
Yangibozor	104,7	104,7	3,9	22,1

Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 30,7 %ni tashkil qildi.

Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirish (*mlrd so'm*)



Jami o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar umumiyligi hajmiga nisbatan O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 9,0 % yoki 333,7 mlrd so'mni, xorijiy investitsiya va kreditlar – 87,6 % yoki 2367,2 mlrd so'mni, shundan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya 612,9 mlrd so'mni tashkil qildi.

**Xorazm viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi
Nashr uchun mas'ul: G.Xaitbayeva
Telefon: (62) 224-65-22**